

2353-2022/IJRO-SON SHARTNOMA

Toshkent sh.

19 Yanvar 2022

"UNICON-SOFT" MCHJ nomidan direktor **XABIBULLAYEV SHERZOD XAYRULLA O'G'LI**, Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin Operator deb ataluvchi bir tomondan va "TOSHKENT SHAHAR XALQ TA'LIMI BOSH BOSHQARMASI" nomidan **ИСЛАМОВА ДИЛФУЗА ДИЛШОДОВНА**, **undefined** asosida faoliyat ko'rsatuvchi bundan keyin Abonent deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, birgalikda Tomonlar deb ataluvchilar, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ijro intizomi yagona idoralararo elektron tizimi, IJRO.GOV.UZ (bundan keyin - Tizim) – bu Operator tomonidan ishlab chiqilgan va unga tegishli bo'lgan, davlat organlarida elektron hujjat aylanishi va ijro intizomining nazoratini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy kompleks.

Abonent – Operator bilan Tizimdan foydalanib Elektron hujjat aylanishi va ijro intizomini nazorat qilish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Foydalanuvchi – o'z lavozim majburiyatlari sababli Tizimning oxirgi foydalanuvchisi hisoblanadigan, Abonent xodimi bo'lgan (yoki unga tenglashtirilgan shaxs) jismoniy shaxs.

Tizim moduli – Abonentga qo'shimcha imkoniyatlarni beruvchi va Tizimning asosiy funksionali hamda vazifasiga ta'sir ko'rsatmaydigan Tizimning qismi. Moduldan foydalanish Abonent uchun ixtiyoriy hisoblanadi.

Shaxsiy kabinet – Abonentga Foydalanuvchilarni qo'shish/chiqarib tashlash orqali ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlardan foydalanish, shuningdek statistika ma'lumotlarini ko'rib chiqish va Foydalanuvchilarning faolligi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish imkonini beradigan Tizimning bo'limi.

Elektron raqamli imzo (bundan keyin - ERI) - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

Hisobot oyi – xizmatlar ko'rsatiladigan kalendar oyi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha Operator Abonentga Tizimdan (SaaS modeli bo'yicha) elektron hujjat aylanishi va ijro intizomini nazorat qilish xizmatlari (bundan keyin – «Xizmatlar»)ni ko'rsatadi.

1.2. Tizimning huquqiy egasi hisoblangan Operator Tizimga egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarishni, shu jumladan Tizimning to'liq texnik ishlashini ta'minlash, kuzatishni va Tizimdan foydalanish qoidalarini belgilashni amalga oshiradi.

1.3. **IJRO.GOV.UZ** manzili bo'yicha joylashgan Tizimdan foydalanish qoidalari ushbu Shartnoma bilan uzviy bog'langan va bajarilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi.

2. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. 1 foydalanuvchi (Abonent xodimi) uchun Abonent to'lovi bir oyda QQSsiz **40,475.00** (qirq ming to'rt yuz yetmish besh) so'mni tashkil qiladi.

2.2. 2022 yilning 3 oyi (**Yanvar-Mart**) davri uchun 6 ta foydalanuvchilarga abonent to'lovining umumiy narxi QQSsiz **728,550** (yetti yuz yigirma sakkiz ming besh yuz ellik) so'mni tashkil qiladi

2.3. Abonent ushbu Shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Operatorning hisob raqamiga Shartnoma narxining 30 foizi miqdoridagi pul mablag'larini o'tkazish orqali Operator Xizmatlari narxining dastlabki to'lovini amalga oshiradi. Shartnoma narxining 70 foizi miqdoridagi qolgan summasini Abonent hisobot oyidan keyin keladigan oyning 10-sanasidan kechiktirmay Hisob-fakturasida ko'rsatilgan hajmda hisobot oyi davomida har oyda to'laydi.

2.4. Har oyda har bir hisobot oyining 30-sanasigacha Operator keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmay Abonent ERI orqali tasdiqlaydigan, hisobot oyida ko'rsatilgan Xizmatlar summasi uchun elektron Hisob-fakturani Abonentga yuboradi. Agar Abonent tomonidan Hisob-faktura o'z vaqtida qabul qilinmagan va 5 (besh) ish kuni ichida uni qabul qilishni asoslangan rad javobi berilmagan bo'lsa, u holda Hisob-faktura qabul qilingan va ikki Tomonlar tarafidan tasdiqlangan, Xizmatlar esa ko'rsatilgan hisoblanadi.

2.5. Ushbu Shartnoma bekor qilingan hollarda qayta hisob-kitoblar va to'lovlar masalalari Tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida belgilangan tartibda hal qilinadi.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Operator:

3.1.1. Operatorning hisob raqamiga dastlabki to'lov kelib tushgan paytdan boshlab Abonent ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilishi sharti bilan Abonentga Xizmatlarni taqdim etish.

3.1.2. Abonentni dasturiy ta'minotni to'laqonli ekspluatatsiya qilish va iste'mol qilinadigan Xizmatlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlash.

3.1.3. Abonentni Xizmatlarni taqdim etish normal rejimining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan reja bo'yicha texnologik ishlarni o'tkazishdan 24 soat oldin va avariya vaziyatlar yuzaga kelgan holda 1 soat oldin elektron pochta yoki **IJRO.GOV.UZ** rasmiy saytida bu ishlarning o'tkazilishi to'g'risida axborot xabarini berish orqali xabardor qilish.

3.1.4. Agar Abonent ushbu Shartnoma shartlarini buzgan yoki favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq sabablarga ko'ra elektron pochta yoki Shaxsiy kabinetda rasmiy xabarni berish orqali elektron hujjat ko'rinishida Abonentni Xizmatlar ko'rsatishning to'xtatilishi to'g'risida oldindan ogohlantirish.

3.1.5. Axborotni uzatish kanallarining xavfsizligi, Tizimdagi axborot va hujjatlarning saqlanishi, butunligi va ishonchliligini, shuningdek Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlari va Tizimni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq holda olingan boshqa axborotning himoyalanihini ta'minlash.

3.1.6. Tizimdan foydalanish davomida olingan hujjatlarni qandaydir ma'lumotlarni buzmaganda Abonentdan olingan xuddi o'sha ko'rinishda qabul qilish, saqlash va foydalanishini ta'minlash.

3.1.7. Ushbu Shartnoma doirasida Tizimdan olingan har qanday axborotning konfidensialligini saqlash majburiyatlariga ega.

3.2. Abonent:

3.2.1. Tizimdan foydalanish qoidalarini, Tizimda hujjatlarni qabul qilish, tekshirish va jo'natishga qo'yiladigan texnik talablarga qat'iy rioya qilgan holda harakat qilish majburiyatiga ega.

3.3. Operator quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. Quyidagi hollarda Xizmatlarni taqdim etishni bir tomonlama tartibda to'xtatib turish, shu jumladan Tizimdan foydalana olishni blokirovkalash orqali:

- umumiy davomiylikdagi 15 (o'n besh) kalendar kunidan ko'p Xizmatlarga haq to'lanmaganda;

- Abonentni xabardor qilgan holda Tizimda reja bo'yicha va/yoki rejadan tashqari ishlar o'tkazilganda;

- Abonent tomonidan Tizim xavfsizligiga tahdidlar aniqlanganda.

3.4. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. O'zIR ijro, sud yoki qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan kiritiladigan ehtimoliy cheklavlarni hisobga olgan holda ushbu shartnomada ko'zda tutilgan uzluksiz Xizmatlardan foydalanish.

3.4.2. Texnik konsultatsiya olish uchun va Tizimning ishlash masalalari bo'yicha telefon yoki elektron pochta orqali Operatorga murojaat qilish.

3.5. Xizmatlardan foydalanishni vaqtincha to'xtatish zarur bo'lgan holda Abonent bu haqda

Aks holda Tizimdan haqiqiy foydalanish faktidan qat'i nazar Xizmatlar lozim darajada ko'rsatilgan bo'lib hisoblanadi.

4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. O'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha Xizmatlarga haq to'lash muddatlarini buzganligi uchun Operator Abonentdan har bir kechiktirilgan kun uchun qarzdorlik summasining 0,5 foiz (nol butun o'ndan besh foiz) miqdorida, ammo ushbu Shartnoma narxidan 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda penyani undirish huquqiga ega.

4.3. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar, agar bajarmaslik uchinchi shaxslarning aybi bilan yuz bergan bo'lsa. Bunday holda Tomonlar bunday bajarmaslik sabablarini bartaraf etish uchun maksimal darajada harakatlar qilish majburiyatiga ega.

4.4. Operatorning javobgarlik zonasi faqat ushbu Shartnomada belgilangan majburiyatlar bilan cheklangan.

4.5. Operator Tizimda aylanadigan hujjatlarning mazmuni uchun javobgar bo'lmaydi, ularni o'zgartirish yoki ularga boshqa tarzda ta'sir ko'rsatish va ularni uchinchi shaxslarga oshkor qilishga haqli emas, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga erishish imkoni bo'lmagan holda yuzaga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

5. KONFIDENSIALLIK

5.1 Tomonlarning ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun asoslangan ravishda zarur bo'lgan axborot bilan almashadilar. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga tegishli bo'lgan, bir tomon tarafidan ikkinchi tomonga taqdim etiladigan, unga nisbatan qonunlar bilan cheklangan foydalana olish rejimi ko'zda tutilgan barcha yozma yoki og'zaki axborot yoki axborotni uzatuvchi tomon boshqa tomonga bunday axborot konfidensial hisoblanishi to'g'risida, ushbu bilan konfidensial axborot («Konfidensial axborot») hisoblanishi to'g'risida oshkora xabardor qilgan. Konfidensial axborotga shu jumladan shaxsiy va tijorat, kasbga, xizmatga oid, shuningdek qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa turdagi sirlardan iborat ma'lumotlar, buxgalteriya va moliyaviy ma'lumotlar, axborot va telekommunikatsiya tizimlarini sozlash uchun boshqaruv axboroti kiradi. Konfidensial axborot undan ruxsatsiz foydalanishdan, uning butunligi, saqlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashi kerak.

5.2. Ushbu Shartnomaga muvofiq Konfidensial axborotni taqdim etuvchi tomon («Uzatuvchi tomon»)ning yozma roziligini olmasdan ushbu Konfidensial axborotni oluvchi Tomon («Oluvchi tomon») Konfidensial axborotning qandaydir qismidan ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun foydalanmaydi (i), Konfidensial axborotni yoki uning qismini asoslangan ravishda ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda Konfidensial axborotdan foydalana oladigan va ular ushbu Shartnoma bo'yicha tomon bo'lgan holdagi kabi Konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlashga rozi bo'ladigan Oluvchi tomon xodimlari va maslahatchilari (shuningdek subpudratchilar)ga tegishli bo'lmagan qandaydir shaxslar yoki tashkilotlarga taqdim etmaydi (ii), Konfidensial axborotdan noqonuniy foydalanishga yo'l qo'ymaydilar (iii).

5.3. Oluvchi tomon Konfidensial axborotni yoki uning qismini oshkor qilinishi uchun javobgar bo'lmaydi, agar u bundan Konfidensial axborot uni olish vaqtida hammaga tegishli hisoblanganligi yoki keyinchalik Oluvchi tomonning aybisiz bunday bo'lganligini (i); bu axborot olingunga qadar Oluvchi tomonga ma'lum bo'lgan yoki uning ixtiyorida bo'lganligini (ii); Konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlash majburiyatining buzilishi bo'lmaganda (iii) Oluvchi tomonga Uzatuvchi tomon bo'lib hisoblanmaydigan manbadan ma'lum bo'lganligini isbotlay olsa.

5.4. Agar Oluvchi tomon qonunga ko'ra qonun hujjatlariga muvofiq Konfidensial axborot

axborotni oshkor qilishga majbur bo'lsa, u holda bunday Tomon bu fakt to'g'risida zudlik bilan Uzatuvchi tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Shu bilan birga Uzatuvchi tomonni lozim darajada xabardor qilingan holda, ushbu bandga muvofiq Konfidensial axborotni oshkor qilayotgan Uzatuvchi tomon Konfidensial axborotni oshkor qilmaslik to'g'risidagi o'z majburiyatini buzgan deb hisoblanmaydi. Bunday oshkor qilingan holda Oluvchi tomon Konfidensial axborotning muhofaza qilinishini ta'minlash uchun unga bog'liq bo'lgan hamma xatti-harakatlarni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.5. Konfidensial axborot Uzatuvchi tomonning mulki hisoblanadi va bu axborot ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun kerak bo'lmay qolgandan keyin Uzatuvchi tomonning talabi bo'yicha zudlik bilan bunday tomonga qaytarilishi kerak yoki Oluvchi tomon yoki ushbu bo'lim qoidalariga muvofiq bunday Konfidensial axborot Oluvchi tomon tarafidan taqdim etilgan boshqa qandaydir tomon tarafidan ko'chirilgan barcha nusxalari bilan birga yo'q qilinadi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

6.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

6.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. BARTARAF ETIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

7.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin va Tomonlar oqilona chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favqulodda tusdagi voqealar oqibatida paydo bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari deganda: suv toshqini, yong'in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi (shu jumladan valyuta operatsiyalarini cheklashlar), epidemiya/pandemiya boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar va sh.k. tushuniladi.

7.2. Shartnomaning 7.1-bandida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, har bir Tomon 5 (besh) kalendar kuni ichida bu haqda boshqa Tomonga xabar qilishi kerak. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari to'g'risida xabar qilmaslik yoki o'z vaqtida xabar qilmaslik tegishli Tomonni majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikni asoslash uchun ularga havola qilishdan mahrum qiladi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH SHARTLARI

8.1. Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligida ro'yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va **2022 yilning 31 dekabrigacha** amal qiladi.

8.2. Tomonlar ushbu shartnomani Tomonlarning kelishuviga ko'ra Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda muddatidan oldin

bekor qilish sanasidan 15 (o'n besh) kalendar kun oldin o'zining qarori to'g'risida xabardor qiladi. Tomonlarning barcha o'zaro hisob-kitoblari amalga oshirilganidan keyin shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Ushbu Shartnoma va unga bog'liq holda Tomonlar tarafidan yaratilgan barcha hujjatlar O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonun talablariga muvofiq yuridik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi va elektron shaklda bajarilganligiga asosanib nizolashilishi mumkin emas.

9.2. O'zgartirishlar va qo'shimchalar qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li orqali Shartnomaga kiritiladi. Ushbu Shartnomaning barcha ilovalari va qo'shimcha kelishuvlari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.3. Shartnoma shartlarida ko'zda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

10. YURIDIK MANZILLAR, BANK REKVIZITLARI VA TOMONLAR IMZOLARI

BAJARUVCHI «UNICON-SOFT» MCHJ

Manzil: 100084, Toshkent sh., Mingbuloq ko'ch., 38
Tel: (99871) 202-46-46
H/r: 2020 8000 8008 0935 4003
«Kapitalbank» ATB, Mirzo Ulug'bek filiali
MFO: 01018
STIR: 305 109 680
IFUT: 62 010
QQS ro'yx. kodi: 3260 3001 3988

BUYURTMACHI "TOSHKENT SHAHAR XALQ TA'LIMI BOSH BOSHQARMASI"

Manzil: MUSTAQILLIK SHOH KO'CHASI, 69-UY
Tel: 998913271101
H/r: 23402000300100001010
MFO: 00014
STIR: 200934858
IFUT: 84112
QQS ro'yx. kodi: undefined

XABIBULLAYEV SHERZOD
XAYRULLA O'G'LI

ИСЛАМОВА ДИЛФУЗА ДИЛШОДОВНА



ДОГОВОР ПОДПИСАН ЭЛЕКТРОННОЙ ЦИФРОВОЙ
ПОДПИСЬЮ

Для проверки подлинности электронной цифровой подписи
сканируйте QR код на мобильном устройстве
или пройдите по ссылке
www.isign.uz

SHARTNOMA ELEKTRON RAQAMLI IMZO
BILAN IMZOLANGAN

Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun
mobil qurilmadagi QR kodni skanerlang yoki
www.isign.uz havola bo'yicha o'ting